

QARINDOSHLIK OTLARI ATAMALARINING DIAKRON ASPEKTDAGI TADQIQI

Ochilova G.U.¹, Abdimomunova A.O.²*Annotatsiya:*

Oiladagi o'zaro munosabatlarni o'rganish azaldan etnologiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Muayyan mamlakatga tashrif buyuruvchilar uzoq vaqtdan beri turli xalqlar tomonidan qo'llaniladigan qarindoshlik terminologiyasi tizimiga maftun bo'lib kelgan. Etnografiya va etnologiya gumanitar fan sifatida tan olinishidan ancha oldin etnologlar ushbu tizimni tadqiq qilishgan.

Kalit so'zlar: etnologiya, qarindoshlik tizimi, lingvistik yondashuv, qarindoshlik munosabatlari.

Kirish. Hozirgi kunga qadar o'tkazilgan sohaga oid tadqiqotlarning tahlili qarindoshlik munosabatlar tizimi hamda qarindoshlik otlari atamalarini o'rganishda antropologiyada izchil, ketma-ketlikdagi, batartib harakatlar amalga oshirilmaganini ko'rsatadi, boshqacha qilib aytganda qarindoshlik otlari bilan bog'liq lisoniy hamda antropologik hodisalarning mohiyatini idrok qilish hamda uni tadqiq qilish bilan ma'lum fan sohasi emas, alohida olingan tadqiqotchining yolg'iz o'zi shug'ullanishi ko'zga tashlanadiki, bu holat masalaning mohiyatini tizimli anglashda muammoli holatlarni yuzaga chiqarmoqda. Aslida, yuqorida tilga olingan birliklarning ilmiy tavsifida izchillik, tizimlilik xususiyati mavjud ekani haqidagi qarashlar L.G. Morgan ishlarida allaqachon qayd etilgan. Bu holat antropologlar orasida qarindoshlik mohiyatining aniq tushunilmasligi va qarindoshlikni ijtimoiy qadriyat sifatida chuqur anglamaslik bilan bog'liq. Bu esa antropologning insonning haqiqiy mavjudligini tushunish bo'yicha professional ekspert sifatida barqarorligiga bog'liqdir.

Asosiy qism. Qarindoshlik mohiyatining doimiy ravishda ochib berilmasligi, qarindoshlikning boshqa ijtimoiy-madaniy haqiqatlar bilan bog'liq bo'lmagan alohida o'rganish ob'yekti sifatida ko'rilishiga olib keladi. Germenevtik antropologiya qarindoshlikning irq, etnik kelib chiqish, din va ijtimoiy tabaqa tuzilmalaridan o'rin olgan turli misollarni taqdim etadi. Biroq, bu soha tadqiqotchilari ham masalada qarindoshlik fenomeniga jamiyat hamda til belgisi qanday ilmiy tushuncha ekani haqidagi tayyor ilmiy bilimlar zahirasi nuqtai-nazaridan yondashadilar, lekin qarindoshlik fenomeni tadqiqotchilar uchun lisoniy, semantik, ijtimoiy, biologik va boshqa xususiyatlar haqida ma'lumot anglatishi mumkin ekani haqidagi jihat ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Aslini olganda, mazkur holatda eng muhim holat qarindoshlik otlari atamaları yoki umuman qarindoshlik tizimi tushunchasining faqat tadqiqotchi olib boradigan ilmiy izlanish ob'yektimi, yoki biologik, yoki ijtimoiy-gumanitar fanlar tadqiqot ob'yekti maqomida ekanida emas, balki ayni tushunchaning o'rganilishi qarindoshlik tizimi, qarindoshlik atamaları, oila, ijtimoiy guruhlanish hamda mazkur hodisalarning lisoniy va nolisoniy xususiyatlari haqidagi masalalarni bugungi ilm - fan muammolari qatorida o'rganilishiga erishish ekanidadir.

XIX asrning elliginchi yillarida qarindoshlik otlari atamalarini o'rganishda mantiqiy-semantik yo'nalishning "etnografik semantika", "yangi etnografiya", "kognitiv madaniyat metateoriyasi", "etnoilm" deb nomlanuvchi bir qator yangi mustaqil etnolingvistik yo'nalishlarini o'zida jamlovchi soha sifatida shakllanishi yakunlandi. Bu E. Sapir va B.L. Uorfning har bir til muayyan fikrlash va xulq-atvor me'yorlariga mos keladi degan g'oyasini aynan aks ettirishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Ayni shu davrlar oralig'ida til funksional vazifalarini bajarishini tashkil etuvchi sxemalar asosidagi kognitiv mexanizmlarni o'rganish uchun maxsus usullar ishlab chiqilgan. Qarindoshlik otlari atamalarining funkstional - semantik tadqiqida qo'llanilgan struktural tilshunoslik metodlari orasidan mazkur tadqiqot maqsadlariga muvofiq keluvchi

¹ Ochilova Gulnora Ulashevna, Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

² Abdimomunova Apal Omorbayevna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Pedagogika fakulteti Filologik va ijtimoiy-iqtisodiy ta'lim dasturlari kafedrasi, J. Balasagyn nomidagi Qirg'iz Milliy Universiteti, Bishkek shahri, Qirg'iziston

komponental, transformatsion va generativ tahlil metodlarini quyida ko'rib chiqish maqsad qilingan.

Komponental tahlil (kombinator) tilning ma'noli birliklarini o'rganish usuli sifatida aniqlanishi mumkin, u struktural semantika doirasida ishlab chiqilgan va ma'noni minimal semantik komponentlarga ajratishga qaratilgan. U kamida ikkita farazga asoslanadi: 1) tilning muayyan tuzilish darajasidagi har bir birligining ma'nosi semantik xususiyatlar to'plamidan iborat; 2) tilning barcha lug'at boyligi ushbu birliklarning cheklangan va nisbatan kichik sonidan foydalangan holda tavsiflanishi mumkin.

Qarindoshlik otlari atamalariga nisbatan ma'noni uning tarkibiy elementlariga ajratish usulining asosiy tamoyillari matematik A. Makfarlayn tomonidan ishlab chiqilgan. Ayni mavzuda tadqiqot olib borgan Kreber 1909 yilda o'zidan avvalroq mazkur masala tadqiqi bilan shug'ullangan Makfarlayndan bexabar holda o'zining maqolasini chop qildirgan. Olim qarindoshlik munosabatlari tizimi tasnifi borasida fikr yuritib, uning fikricha barcha xalqlar qarindoshlik tizimlari uchun universal hisoblangan sakkiz jihatni qayd etadi. Bular: qarindoshlik munosabatining avlodlar kesimida chegaralanishi; qarindoshlik munosabatlarining gorizontol hamda vertikal yo'nalishda farqlanishi; bir avlodga mansub qarindoshlar aro yoshga ko'ra farqlanish; qarindoshning jinsiga ko'ra farqlanish; tahlil uchun tanlab olingan subyektning jinsiga ko'ra farqlanish; qarindoshlik munosabatini bog'lovchi qarindoshning jinsiga ko'ra farqlanish; qon-qarindoshning nikoh rishtasi bilan bog'langan qarindoshdan farqlanishi; qarindoshlik munosabatini bog'lovchi qarindoshning hayotiylik statusi (tirik yoki o'lik ekani).

Amerikalik olimlar W.H. Gudenaf va F.L. Launsberi tomonidan asos solingan komponent tahlil tamoyillarining mukamlashtirilib ishlab chiqilishi natijasida qarindoshlik munosabatlari tizimlarini o'rganishda struktural yondashuvning ahamiyatiga bo'lgan qiziqish yana kuchaydi. Ular o'z maqolalarida qarindoshlik munosabatlari bilan bog'liq atamalarni formal tavsiflashning tamoyillari va vazifalarini ishlab chiqishgan.

Komponent tahlil tamoyillarini sotsiologiya, tarix hamda psixologiyadan ajratib o'rgangan amerikalik tadqiqotchilardan farqli, sobiq ittifoq tadqiqotchilari mazkur tahlil metodini qarindoshlik munosabatlari tizimi tipologiyasini yartib beruvchi zaruriy sharoitni hozirlay oladi deb hisoblashgan.

Shu bilan bir qatorda, ayrim tadqiqotchilar komponent tahlil metodini tanqidiy baholab, uni qarindoshlik otlari atamalarini tahlilida keng qo'llanilishini mazkur metod imkoniyatlarining haddan ortiq ideallashtirilishi deb hisoblashgan. Jumladan, J. Lif mazkur metodda genealogik universalialiyalarga e'tiborning haddan ortiq qaratilgani hamda mazkur tahlil metodida qarindoshlik otlari atamalarining haqiqiy xususiyatlari tahlili ahamiyati e'tibordan chetda qolib ketayotganini ta'kidlagan. O.N. Trubachev ham shunga yaqin fikrni bildirgan: "... Ma'noni alohida komponentlarga yoki ma'no belgilariga bo'lish - segmentatsiya qilish ... uning ma'no ko'lamini to'laonli qamrab ololmaydi, chunki bu holatda har doim aynan ma'noning asl mohiyatini tashkil etuvchi biror supersegment elementni e'tibordan chetda qoldirish ehtimoli mavjud". Olimning mantig'iga asoslanib komponent tahlil metodi "ona" qarindoshlik oti atamasining ma'noviy tarkibini mutlaq aniqlash imkonini bermasligi, aksincha ushbu leksemaning ma'nosini "birlamchi darajadagi birlamchi ajdodlar shajarasidagi ayol jinsiga mansub qon-qarindosh" doirasidagi semantik ma'no birliklari to'plami shaklida tavsiflash imkonini berishi anglashiladi.

Komponent tahlil metodi texnikasi qarindoshlik otlari atamalarilarning aksariyati uchun muhim va katta ahamiyatga ega bo'lgan ayni tushunchaning turli ifoda shakllarini ochib bera oluvchi avlod, jins va yosh paradigmatlarini tavsiflash uchun mo'ljallanmagan.

Yuqoridagi ma'lumotlarning umumiy mazmuni komponent tahlil metodi qarindoshlik otlari atamalarini semantik jihatini o'rganishda asosiy vosita rolini bajarishini ko'rsatib berishini ta'kidlash lozim. Xulosa qilib aytganda, komponent tahlil metodi zamonaviy tilshunoslikda qarindoshlik otlari atamalarining semantik strukturasini o'rganishning shakllanish bosqichini yakunlagan va uzoq amaliyot tarixiga ega bo'lgan yagona konsepsiyasidir.

Transformatsion tahlil metodi qarindoshlik otlari atamalarini tadqiqida u qadar keng qo'llanilish qamroviga ega emas. Struktur tilshunoslikda transformatsiya tushunchasi ikkita sintaktik konsepsiya Z. Harris va N. Xomskiy ishlarida turlicha talqinda paydo bo'lgan. Harris uchun transformatsiya bir xil sintaktik qurshovdagi ikki gap o'rtasidagi tenglik munosabatini anglatadi (ya'ni Harris fikricha, transformatsiya shakllangan sintaktik butunliklarni-gaplarni

o'zaro bog'lashga xizmat qiladi), Xomskiy uchun esa transformatsiya ichki generativ grammatikaning abstrakt qoidalarini ifodalashi, shu tariqa muayyan tilning barcha gaplarini generatsiya qilishi orqali hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishidan kelib chiqib, asosiy o'rinni egallaydi. Xulosa qilib aytganda, Harrisda transformatsiya tilda tayyor gaplarni bog'lasa, Xomskiyda u gaplar yaralishi mexanizmi mohiyati tarkibida joylashgan.

Transformatsiya tushunchasining bunday ikki xil talqini struktural tilshunoslikda transformatsion hamda generativ tahlil metodlari deb nomlanadigan ikki yo'nalishni yuzaga keltirgan. E'tiborli jihati, xuddi komponent tahlil metodida bo'lganidek, transformatsion tahlil metodi ham qarindoshlik otlari atamaları hali ilmiy iste'molga kiritilmasidan ancha avval tilshunoslar tomonidan qo'llanila boshlagan.

Qarindoshlik otlari atamaları tadqiqida komponent tahlil hamda transformatsion tahlil metodlari kombinatsiyasidan foydalanish holati qarindoshlik otlari atamaları birlamchi va hosila ma'noga ega bo'lishini qayd etgan Launsberi tadqiqotlarida ko'zga tashlanadi, uning fikricha, har bir qarindoshlik otlari atamalarida birlamchi va hosila ma'no mavjud; hosila ma'no bir necha denotatlar o'rtasida ekstensiv muqobillik munosabatlarini o'rnatadigan transformatsiya qoidalari to'plami orqali aniqlanadi.

Qarindoshlik munosabatlari tizimini to'liq o'rganish, olimning fikriga ko'ra, qarindoshlik oti atamasining ijtimoiy mazmunini ifodalovchi – referension, lisoniy hamda tinglovchining mazkur qarindoshlik otiga nisbatan shaxsiy munosabati kabi uch tashkil qiluvchi omilning tahliliga asoslanadi. Launsberi uchun denotatlarning transformatsiyalanish qonuniyati oila tuzilishining, an'anaviy huquqiy va ijtimoiy munosabatlarning asosiy tamoyillarini aks ettiradi va shuning uchun formal semantik tahlil ijtimoiy tahlilga olib boradigan zaruriy shart hisoblanadi.

Shu bilan birga, transformatsion tahlil va komponent tahlil "avlod" va "nasl-nasab" tizimlarni ifodalovchi genealogik parametrlarning universalligi va "tabiiyligi" tamoyiliga asoslangan holda shakllanganini ham alohida qayd etib o'tish joiz.

Qarindoshlik otlari atamalarining generativ tahlili N. Xomskiyning g'oyalari bilan bog'liq bo'lib, ular qarindoshlik otlari atamalarining "qo'llanilishi", ya'ni "individdning qarindoshlik tizimidagi aniq zamon va makondagi holatini" va "kompetensiya"ni, ya'ni "hozirgi vaqtda unga tegishli bo'lmagan atamalar vositasida biror individni aniqlash imkoniyatini" ajratish imkonini beradi. M. Saltarelli va M. Durbin qarindoshlik otlari atamalariga uning asosiy ma'nosini beruvchi qoidalar to'plamini taqdim etishgan, ammo ular faqat zamonaviy Yevropa va Amerika xalqlari qarindoshlik otlari atamalarini o'rganganligi sababli, generativ tahlil metodining barcha imkoniyatlarini namoyish qilish imkoniga ega bo'lishmagan.

Bunday tadqiqotlar sinxron yoki diaxron nuqtai - nazardan olib borilishi mumkin. Qarindoshlik tizimiga mansub lug'aviy birliklarning sinxron ta'riflari, lug'atlarda berilgan qarindoshlik otlari atamalarining izohlariga bag'ishlangan maqolalaridan yig'ilgan va maxsus izohlar bilan birga bo'lgan lug'at hujjatlarida taqdim etiladi.

Qarindoshlik otlar atamalarini o'rganishdagi qiyosiy – tarixiy tadqiq yo'nalishi birinchi marta F.I. Buslayevning dissertatsiyasida paydo bo'lib, uning boblari slavyan tillaridagi ijtimoiy hayot terminologiyasining etimologik tahliliga bag'ishlangan. Mazkur tadqiqotining yakunida F.I. Buslayev bir nechta xulosalarini bayon qiladi: birinchi navbatda, slavyan tiliga mansub barcha qarindoshlik otlari atamaları kelib chiqishi sanskrit tiliga mansub qarindoshlik otlari atamaları bilan qiyoslanganda aniqroq izohlanishi mumkin; ikkinchidan, oilaviy hayotga oid qarindoshlik otlari atamaları keng qamrovli ijtimoiy aloqalarni ifodalay oluvchi so'zlarga aylanishga moyildir. Lavrovsky ham, "Slavyanlar o'rtasida qarindoshlik nomlarining tub ma'nosi" nomli kitobida, slavyan tillari misolida qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi so'zlarning ma'nosini vaqt o'tishi bilan qanday o'zgartirish mumkinligini va bu o'zgarishlarning ijtimoiy institutlarning yo'qolishi bilan bog'liqligi qay darajada ekanligini izohlashga harakat qilgan.

Xulosa. Qarindoshlik otlari atamaları o'rganishdagi analitik formal yo'nalishning asosini qarindoshlik otlari atamaları tizimini oddiy leksik element sifatida ko'rib bu elementlarga ham fonetik, morfologik, grammatik va semantik tahlilning an'anaviy turlari yordamida tahlil qilish talabini qo'yadi. Qarindoshlik atamaları muayyan til qonuniyatlari harakatiga misol tariqasida vaqti-vaqti bilan namoyon bo'ladigan tadqiqotlar bilan bir qatorda qarindoshlik atamalarining bir lug'aviy guruhga kirishiga asoslangan tadqiqotlar ham mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Буслаев Ф.И. О влиянии христианства на славянский язык. - М.: Унив. тип., 1848.-211 с.
- [2]. Трубачев О.Н. Реконструкция слов и их значений // Вопросы языкознания. -М.: Наука, 1980.-№ 3. - С.140-143.
- [3]. Durbin M. The goals of ethnoscience // *Anthropological Linguistics*. - Chicago: Chicago Press, 1966. - Vol. 8. -№ 8. -Pp.67-83.
- [4]. Goodenough, W. *Componental Analysis and the Study of Meaning* // *Language* - Baltimore: Waverly Press, 1956. - Vol. 32. - № 1. - Pp.65-76.
- [5]. Hammel E.A. A transformational analysis of Comanche kinship terminology // *American Anthropologist*. - Washington: University of Washington Press, 1965. - Vol. 67. - №5. - Pp.89-96.
- [6]. Kroeber A.L. *Classificatory systems of relationship* // *Journal of the Royal Anthropological Institute of Great Britain and London: Routledge and Kegan Paul*, 11909.-Vol. 32. -№1. - Pp.131-142.
- [7]. Lowie R. Hopi kinship // *Anthropological Papers of the American Museum of Natural History*. - New York: Anthropological Papers. - Vol. 30. - Pp.117-123.
- [8]. Ochilova G.U. A Brief History of Study of Kinship Terms. *American Journal of Language, Literacy and Learning in Stem Education* Volume 02, Issue 04, 2024 ISSN (E): 2993-2769. Pp. - 90-93.
- [9]. Ochilova G.U. The concept of "kinship" and its use in languages of different systems. - *Eurasian Research Bulletin*, Volume 19, April, 2023. - Pp. 301-304.
- [10]. Rahimov A.A. Essence and interpretation of secondary nomination means// *Asian Journal of Multidimensional Research*. January 2022. - P. 358-363
- [11]. Saltarelli M., Durbin M. A semantic interpretation of kinship systems // *Linguistics*. - Ithaca: Cornell University Press, 1967. - Vol 33. - Pp.112-117.
- [12]. Болтакулова Г. Ф. Способы выражения обстоятельства времени в английском и русском языках и его место в предложении // *Молодой ученый*. - 2015. - №. 14. - С. 583-585.
- [13]. Mardonova M. S. Development of lexical-semantic groups of verbs and directional verbs used in old English. - 2022. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/H4DVZ>
- [14]. Umidkizi F. S. The Concept of Politeness in the Cross-Cultural Communication // *Miasto Przyszłości*. - 2024. - T. 51. - C. 63-66. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4406>
- [15]. Яркулова Д. The importance of time and space concepts in fictional works // *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*. - 2024. - Т. 2. - №. 1/5. - С. 378-383.
- [16]. Valievna K. S. Effective strategies of enlarging students' vocabulary // *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*. - 2022. - Т. 12. - №. 5. - С. 181-183.
- [17]. Mavlonova N. Interlanguage Phraseological Correspondence of English-Russian-Uzbek Languages and Their Classification // *Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics*. - 2023. - Т. 1. - №. 4. - С. 85-89